

ADOLAT VA DAVLAT TIMSOLI

B.To'xliyev¹

Matyaqubova Z.X.²

Alfraganus Universiteti

KEYWORDS

"Qutadg'u bilig",
O'gdulmish, Kuntug'di, O'zg'ur-
mish, Oyto'ldi, adolat, davlat, aql,
qanoat, badiiy tavr vositalari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada jahon adabiyoti durdonalaridan biri sanalgan "Qutadg'u bilig" dostoni haqida so'z yuritiladi. Uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, adabiy va ma'rifiy o'rni haqida fikr bildiriladi. Asardagi ramziy obrazlar, qahramonlarga qo'yilgan ismlarning qanday ma'noni ahglatishi haqida to'xalib o'tiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15362382**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tarix turkiy xalqlarning qadimdan milliy-ma'naviy hodisalarning butun insoniyatga tatiydigan natijalari bilan ko'p siylagan. Mana shunday hodisalardan yiriklari sifatida qoraxoniylar davrini tilga olish mumkin. Ayni mana shu davrda buyuk davlatchilik, milliy o'sish va taraqqiyotning yangi bir bosqichi maydonga keldi. Xuddi shu davrda turkiy xalqlarning nomini, shuhratini yanada yuksak darajalarga ko'targan uchta buyuk alloma adiblar o'z imkonlarini namoyish etishdi. Ulardan biri olim va ijodkor Mahmud Qoshqariy edi U o'zining "Devonu lug'ot it-turk" asari bilan jahon ahlini haligacha lolu hayron qoldirib kelmoqda.

Mazkur uchlikning yana bir nuqtasi Ahmad Yugnakiy nomi bilan bog'liq. Uning "Hibat ul-haqoyiq" – "Haqiqatlar armug'oni" asari donishmandlik kitobi sifatida mashhur bo'ldi.

Yusuf Xos Hojib bu uchlikning ham shoir, ham olim sifatidagi oliy cho'qqisini tashkil etadi. "Qutadg'u bilig" – "Saodatga eltuvchi bilim" mana shunday buyuk kuch va istedad egasining ulkan yodgorligidir. Ularning bu yodgorliklari faqat o'zlarining nomlarini mangu xotira sifatida eslanishigagina emas, balki turkiy xalqlarga xos bo'lgan buyuk iqtidor, kuch va salohiyatning namoyon bo'lishida ham takrorlanmas buyuk obidalar sifatida e'tirof etildi.

Bugun ularning Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari buyuklar

¹ ff doktori, professor Alfraganus Universiteti

² Alfraganus Universiteti 2 –bosqich magistranti

qatorida sanalishi bejiz emas. Bu borada ja=on olimlarini ng hamfikr ekanligi ham e'tiborga loyiqdir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" o'n birinchi asrda yaratilgan. U turkiy tilda yaratilgan ilk yirik yozma doston sifatida alohida ahamiyatga molik. Asarda o'sha davrdagi ajdodlarning tasavvur va dunyoqarashlari, falsafasi, axloqi, ma'naviyati va madaniyati badiiy so'z vositasida o'ziga xos tarzda tasvirlab berilgan. Ayni paytda bu asar turkiy davlatchilikning o'z davridagi badiiy nizomnomasi sifatida ham e'tirof etilgan.

"Qutadg'u bilig" – falsafiy–didaktik asar. Agar uning mamlakatni siyosiy jihatdan jipslashtirish maqsadining ham asosiy muammo sifatida tilga olingani eslansa, dostonni ayni paytda siyosiy didaktikaning ham o'ziga xos, takrorlanmas namunasi deyish to'g'ri bo'ladi. Bu jihati bilan u Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomulmulkning "Siyosatnoma" kabi asarlari bilan bir qatorga kiradi.

Asarni O'zbekistondagi yirik tadqiqotchilaridan biri, pofessor B.To'xliiev shunday yozadi: "Yirik hajmli dostonlarda ko'zga tashlanadigan voqealarning epik bayoni "Qutadgu bilig" uchun xos emas. Aniqrog'i, shoir bu yerda mutlaqo yangicha yo'l tutgan. Unda ishtirok etadigan qahramonlarning "sarguzashtlari" asar boblarining o'zaro aloqasini ta'minlashning yagona va eng kuchli omili sifatida ko'zga tashlanmaydi. Aksincha, bu vazifa qahramonlarning ramziy ma'nolari orqali anglashiladigan vazifalari orqali amalga oshadi.

Gap shundaki, "Qutadg'u bilig" qahramonlari Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish, O'zg'urmishlar elig (davlat boshlig'i), vazir, vazirning o'g'li va uning qarindoshi sifatida ko'rinsa ham, ularning bosh vazifasi Adolat, Davlat, Aql va Ofiyat (salomatlik, qanoat)ni ramziy tarzda aks ettirishdan iboratdir"².

Kuntug'di – "tuqqan, tug'ilgan kun" degani. Agar osmondagi eng yirik sayyoralar sifatida Oy bilan Kun (Quyosh) mavjudligini, Quyoshning butun yil davomida mavjud bo'lishini Adolat bilan aloqalantiradi. Quyosh (Adolat)ning har doim ko'rinib turishi borliqqa ro'shnolik, tabiatga harakat bag'ishlasa, Oy (davlat)ning amal qilishi jamiyat ravnaqi, uning baxt–saodati yo'lida undan kam vazifani bajarmasligiga ishora.

Asarda yana ikkita asosiy qahramon bor. Ulardan biri O'gdulmish (vazirning o'g'li va ularning qarindoshi bo'lgan zohid – O'zg'urmish bor. "O'gdulmish" "o'g" so'zidan yasalgan. Bu Aql demakdir³.

"O'zg'urmish" – uyqudan (g'aflatdan) uyg'ongan, hushyor, hushyorlantiruvchi degan manon bildiradi.

Mana shu to'rt qahramon asardagi barcha masala va muammolarning qo'yilishi va yechimida ishtrok etadigan qahramonlardir. Takidlash lozimki, asarning boshlanishida Kuntug'di bilan Oyto'ldi, o'rta qismida Kuntug'di Oyto'ldi va O'gdulmish, keyingi qismida Kuntug'di, O'gdulmish va O'zg'urmish harakatlariga ustuvorlik beriladi. Asar nihoyasida esa Kuntug'di bilan O'gdulmishgina harakatlanadi.

Voqealar davomida Oyto'ldi bilan O'zg'urmish, ya'ni Davlat bilan Ofiyat vafot etadi. Kuntug'di

(Adolat) bilan O'gdulmish (Aql) esa tirik qolishadi. Demak, muallif ayni mana shu holatda ham ramzlarga urg'u beradi.

Tadqiqotchilarning ko'pi qahramonlar nomi ham ularning ramziy ma'nolariga uyg'un ekanini ta'kidlashgan.

E'tiborli jihati shundaki mamlakatni boshqarishda boshliq, hukmdor, (XI asrda bu mansab elig deb yuritilgan)⁴ bilan uning vaziri asosiy o'rin tutadi. Yusuf Xos Hojib ulardan birini Quyosh (Kuntug'di), ikkinchisini esa Oy (Oyto'ldi) deb ataydi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ayni mana shu ikki lavozim mamlakat va el ravnaqi uchun ham, ularning muhofazasi va yashashi uchun ham bosh omil va kafolat bo'la oladi.

Yusuf Xos Hojib davlat boshqaruvida Aqlning, Tafakkurning o'rni va ahamiyatida juda muhim tarkibiy qism tariqasida qaraydi. Asardagi yetakchi qahramonlardan birining shu nom bilan yuritilishi bejiz emas. Aslida adib yashagan tarixiy davrda ijtimoiy-ma'naviy hayotda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan, jamiyat taraqqiyoti va ravnaqining kelajagi borasida ancha jiddiy mulohazalar yuzaga kelgan edi. Ayniqsa, Farobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037) singari mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bu davrda ancha keng yoyilganini mutaxassislar bir ovozdan qayd etishadi.

Forobiyning aqlli inson haqidagi mana bunday mulohazalari e'tiborga loyiq: "Aqlli deb shunday kishiga aytamizki, unda o'tkir zehn-idrok bo'lishi bilan birga fazilati ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamnigina aqlli va to'g'ri fikr yurituvchi deb atash mumkin.

Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'molga ega: yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deyдилar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim".

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi O'gdulmish obrazi Forobiy belgilab bergan aqlli inson obraziga to'la mos keladi.

Prof. B.To'xliev bu haqda shunday yozadi: "O'gdulmish – asardagi eng faol qahramon. O'gdulmish so'zining ma'nosi «o'g» bilan bog'liq. U «aql», «aql-idrok» ma'nosiga ega. O'gdulmish «aql bilan ziynatlangan» demakdir. Uning asarda vazirning o'g'li darajasidan vazir martabasiga ko'tarilishi bejiz emas"⁵.

O'gdulmishning "Aql" timsolida harakatlanishi asardagi asosiy, yetakchi yo'nalishni tashkil etadi. Aslida asardagi barcha qahramonlarni birlashtirib turuvchi yagona obraz ham O'gdulmishning o'zidir. Shunga ko'ra, M.Imomnazarovning quyidagi mulohazalarini to'laligicha qabul qilish mumkin:

"Hukmdorga (shoir hukmdorni Elig deb ataydi), qarindoshi O'zg'urmish haqida O'gdulmish eslatadi, ya'ni Adolat Aql yordamida Qanoatdan xabar topadi va uning suhbatini istaydi.

O'zg'urmish bilan bo'lgan suhbatlar ta'sirida O'gdulmishning ham ruhida o'zgarishlar yuz beradi. U ma'lum vaqt tavba-tazarruga berilib, moddiy dunyo tashvishlaridan o'zini olib qochishga intiladi. Ammo O'zg'urmish va Kunto'ldi uni bu niyatdan qaytaradilar, el-yurt tashvishi bilan yashashga undaydilar. O'zg'urmish orqali Yusuf Xos Hojib tasavvuf ta'limotiga o'z munosabatini bildiradi. Tasavvuf, taqvo, zohidlik va faqr shoir nazdida Qanoatning timsoli. Adolat Qanoatsiz bo'lmaydi. Hukmdor so'fiyning, zohidning suhbatidan bahramand bo'lib turishi kerak. Sufiy hukmdorni qidirib kelmaydi, hukmdor uni o'zi qidirishi, suhbatiga intiq bo'lishi kerak. Kuntug'di O'gdulmishni maktub bilan O'zg'urmish oldiga uch marta jo'natadi. Shoir fikricha, agar hukmdor e'tibor ko'rsatsa va mayl bildirsa, so'fiy uning suhbatidan bosh tortishi yaxshi emas. Ammo O'zg'urmish saroy a'yoniga aylanmaydi, ma'lum vaqt Elig bilan fikr almashib, yana o'z kulbasiga qaytadi. Qanoat Oqibatni o'ylash bilan bo'ladi, u insonga Ofiyat (ruhiy osoyishtalik, qoniqish) keltiradi. Shoir ularni ma'nodosh tushunchalar sifatida talqin etadi"⁶.

1. Akademik M.Xayrullaev Farobiy iste'dodi, ilmiy faoliyatining ahamiyati haqida gapirar ekan, jumladan, shunday degan edi: "Forobiyning o'rta asr ma'naviy madaniyatining turli sohalaridagi dadil izlanishlari va muvaffaqiyatlari uning o'z dunyoqarashi va falsafiy fikrlash tamoyillaridan kelib chiqqanligi bilan izohlanadi"⁷. Xuddi shunga o'xshash Yusuf Xos Hojibning ham o'z asarini yozishdagi buyuk iste'dodi o'z davridagi nihoyatda yirik va jiddiy adabiy-estetik izlanishlardan iborat edi va bu izlanishlarning natijasi jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan badiiyat durdonlarining yaratilishiga olib keldi.
2. "Qutadg'u bilig"ning mavzu qamrovi juda keng. Bunitng bosh sababi Yusuf Xos Hojibning o'z oldiga qo'ygan vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir.
3. Yusuf xos Hojib Uyg'onish davrining munosib farzandi sifatida o'z oldiga mamdakat va shu mamlakat fuqoralarining erkin, ozod va farovon hayot kechirishlarini chin dildan orzu qilgan edi. Asardagi mavzu qamrovining butun mavzu va mundarijasi mana shu orzu va o'ylarga mos va munosib bo'lgan.
4. Adib qoraxoniylar davlatining tinch, kuchli, xavfu xatarlardan xoli bo'lishi uchun davlatning kuchli bo'lishi, uemen Adolat bilan boshqarilishi, davlat tepasida Aqlli va dono, ishbilarmon va tajribali shaxslar bo'lishi kaerakligini turli adabiy vositalar yordamida ko'rsatishga harakat qildi.
5. Dostonning mavzu qamrovi adibning o'z davrining haqiqiy mutafakkiri hamda barcha zamonlarning haqiqiy qalam ustasi ekanini yana bir marta tasdiqlay oladi.

Adabiyotlar:

1. Abduhalimov B. Abu Ali ibn Sino. Buyuk yurt allomalari. – Toshkent, "O'zbekiston", 2018, 67-68-betlar.

- 2.Imomnazarov M., Lafasov M. Ma'naviyat asoslari (Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma) – Toshkent, 2008, 256 bet.
- 3.Isoqjonov R. Abu Nasr Forobiy. – Buyuk yurt allomalari. – Toshkent, "O'zbekiston", 2018, 83-86-betlar
- 4.To'raev B. Abu Rayhon Beruniy. – Buyuk yurt allomalari. – Toshkent, "O'zbekiston", 2018, 37-43-betlar;
- 5.Forobiy, Abu Nasr.** Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.
- 6.Xayrullaev M. Sharqning mashhur mutafakkiri. – / Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016, 3-9-betlar.